

KLISHE

*Andijon davlat chet tillari instituti,
Roman-german va slavyan tillar fakulteti,
Kompyuter lingvistikasi yo 'nalishi
talabasi
KL 25-01 guruh Shokirova
Rayhona Ma'rufjon
qizi*

Ilmiy maslahatchi: Kabulova Umida

Annotatsiya: Har qanday klishe eng sodda shakldan tortib eng murakkab shakligacha yoki sintetik, yoki analitik bo'lishi mumkin. Biz sintetik klishe deganda mazmunan va shakl bir butun, ajralmas belgiga birlashgan til birliklarini tushunamiz. Analitik klishe esa- mazmuniy tuzilmasi bir necha mustaqil shaklan ajralgan elementlardan tarkib topgan klishe hisoblanadi. Shuningdek, ushbu maqolada klishe haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: frazeologizm, sintetik, analitik, til, maqol, matallar, aforizm, mantiq, ertak.

Аннотация: Всякое клише – от простейшего до сложнейшего – может быть либо синтетическим, либо аналитическим. Под синтетическим, клише мы понимаем такое языковое образование, в котором содержание и форма слиты в котором смысловая структура складывается из нескольких отдельных, формально самостоятельных элементов.

Ключевые слова: фразеологизм, синтетический, аналитический, язык, пословица, афоризм, сказка.

Abstract: Any cliché – from the simplest to the most complex form – can be either synthetic or analytical. By a synthetic cliché, we mean a linguistic unit in which form and meaning are fused into a single, inseparable sign. An analytical cliché,

on the other hand, is one whose semantic structure is composed of several formally independent elements.

Key words: *phraseologism, synthetic, analytic, language, proverb, aphorism, logic, fairy tale.*

Klishe – bu ko‘p ishlatilgan, yangiligi yo‘q, ta’sirini yo‘qotgan ibora yoki fikr degani. Ya’ni avval ta’sirli bo‘lgan, lekin endi juda ko‘p takrorlanib, zerikarli bo‘lib qolgan so‘zlar, jumlar yoki ifodalar klishe deyiladi. Barcha murakkab (tarkibli) klishe – frazeologizmlardan tortib, nasihatli ertaklargacha bir ketma-ket, izchil til birliklari tizimini tashkil etadi. Masalan: ”Mehnatsiz hatto baliqni ham ko‘ldan tutib bo‘lmaydi” – sintetik klishe hisoblanadi¹. ”Qo‘l qovushtirmay ishlash” bu esa analitik klishe. Ular orasida farq shundaki birinchi holatda ma’no butun ajralmas yaxlitlik sifatida qabul qilinadi, ikkinchi holatda esa – bu ma’no tarkibiy qismlar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir natijasida hosil bo‘ladi. Tildagi barqaror ifodalar (klishe) murakkab, ammo mantiqiy tizimda joylashgan. Ular ma’no hosil bo‘lish usuli bo‘yicha ikki yo‘l bilan ishlaydi birlashtiruvchi (sintetik) yoki ajratilgan (analitik). Amalda sintetik va analitik klishe orasida qat’iy chegara yo‘q. Bazi klishe bir turdan ikkinchisiga o‘tishi mumkin va aksincha. Bundan tashqari, ko‘plab klishe oraliq xususiyatga ega: ular bir jihatdan sintetik boshqa jihatdan analitik bo‘lishi mumkin. Eng yuqori sintetik shakl bu maqol va matallardir, chunki ularda ifoda shakli bilan mazmun to‘liq mos keladi. Kamroq sintetik shakllar bu aforizmlar va maqolaga o‘xshash hikmatli ifodalar, ularning mazmuni mantiqiy mulohaza shaklida ochiladi. Eng kam sintetik (ya’ni eng analitik) shakllar esa masalalar va ertaklardir, unda fikr to‘liq hikoya tarzda bayon etiladi. Shunday qilib, butun klishe tizimini – frazeologizmdan tortib ertakkacha tobora analitiklashib boruvchi shakllar zanjiri sifatida qarash mumkin².

¹ Пермяков Г. Л. От поговорки до сказки: Заметки по общей теории клише. — Москва: Наука, 1970. — С. 76.

² Пермяков Г. Л. От поговорки до сказки: Заметки по общей теории клише. — Москва: Наука, 1970. — С. 77.

Ya'ni iboralardan ertaklargacha bo'lgan har bir bosqichda til ifodasi konkretlikdan mavhumlikka, soddadan murakkablikka o'tadi. Agar barcha klishe'larni analitiklik darajasi ortib borish tartibida joylashtirsak, quyidagi sxema hosil bo'ladi:

1. Frazelogik iboralar (ideomalar).
2. Maqollar va matallar.
3. Aforizmlar va maqolga o'xshash hikmatli iboralar.
4. Masallar va ertaklar.

Frazelogizmlarda mazmun eng ixcham shaklda ifodalanadi: unda obraz (tasvir) va fikr birlashib, ajralmas yaxlitlikni tashkil etadi. Maqol va matallarda esa bu yaxlitlik qisman ajraladi – fikr mantiqiy munosabatlar (ko'pincha qarama- qarshilik yoki taqqoslash) orqali shakllanadi. Aforizmlarda bu abstract hukm (mantiqiy mulohaza) orqali bildiriladi. Masal va ertaklarda esa fikr aniq harakatlar va voqealar zanjiri orqali ifodalanadi. Demak, klishe'larning rivojlanishi semantik (ma'nodagi) yaxlitlikdan – mantiqiy tafsilotga, obrazlilikdan – hikoyachilikka, ishora tarzidagi ifodadan – to'liq bayonga o'tish yo'nalishida sodir bo'ladi. Ya'ni, ibora – qisqa ishora, ertak esa – to'liq mantiqiy hikoya. Bu tizimning har bir bosqichida oldingi bosqich belgilari saqlanadi, lekin yangi vazifada namoyon bo'ladi. Masalan, maqol tarkibida barqaror ibora (frazelogizm) bo'lishi mumkin, ertak esa o'z matnida maqol yoki aforizmni o'z ichiga olishi mumkin. Shunday qilib, barcha klishe'lar mustaqil, alohida birliklar emas, balki bir butun zanjirning bo'g'inlari, unda har bir element tuzilma (strukturaviy) va ma'no (semantik) jihatdan boshqalar bilan bog'lagan. Har bir klishe turi voqealikni modellashtirishning o'ziga xos usulini ifodalaydi. Frazelogizmlar va maqollarda bu modellashtirishning o'ziga hos usulini ifodalaydi.³Frazelogizmlar va maqollarda bu modellashtirish umumlashtirilgan ifoda shaklida, ya'ni aniq vaziyat o'rniga barqaror o'braz (tasvir) qo'yilgan holda amalga oshiriladi. Aforizmlarda esa bu umumiy qonuniyatni ifodalovchi mantiqiy formula tarzida namoyon bo'ladi. Masallar va ertaklarda esa bu harakat shaklida berilgan, kengaytirilgan xulq – atvor modeli sifatida ko'rinadi. Shu sababli klishe'larni “model belgilar” deb qarash mumkin, yoki

³ <http://cyberleninka.ru>; help.miratext.ru; iprofi.io; agima.ru; etxt.ru

boshqacha aytganda, ular – inson tajribasini modellashtiruvchi maxsus til vositalaridir. Masalan, “Na Xudoga suyan, ammo o‘zing ham sust bo‘lma” degan maqol ishonch va faol harakat o‘rtasidagi tipik munosabatni modellashtiradi, ularning bir – birini to‘ldiruvchiligini ko‘rsatadi. Xuddi shu g‘oya masalada, masalan “Chigirtka va chumoli” hikoyasida, harakatlar ketma-ketligi orqali ifodalanadi. Demak, bir xil model – turli klishe turlarida turlicha shaklda amalga oshadi. Demak, klishe faqat sintetiklik darjasi bilan emas, balki voqealarni modellashtirish usuli bilan ham farqlanadi – ya’ni statik formula (qat’iy ifoda) dan dinamik hikoyaga o‘tish orqali. Bu jarayonda umumiy qonuniyat shunday: ifoda shakli qancha kengaytirilgan bo‘lsa, shuncha murakkab munosabatlarni ifodalash imkoniyati ortadi, ammo shaklning ixchamligi va universalligi kamayadi. Maqol ko‘plab turli vaziyatlarga tatbiq etiladigan formula sifatida ishlaydi, ertak esa aniq misol bo‘lib, uni obrazlikni yo‘qotmasdan umumiyashtirish qiyin. Klishe faqat bilish (kognitiv) emas, balki muloqot (komunikativ) vazifani ham bajaradi. Ular jamiyat tomonidan yaratilgan ijtimoiy tajriba, axloqiy me’yorlar va qadriyatlarni uzatish vositasi sifatida xizmat qiladi. Klishe orqali jamiyat go‘yo o‘zi bilan “so‘zlashadi”, ya’ni uning uchun eng muhim ma’nolarni takrorlab, mustahkamlab boradi. Shuning uchun maqollar va matallarni tildagi ijtimoiy o‘zini anglash shakli deb qarash mumkin.⁴ Ular dunyoni faqat tasvirlamaydi, balki uni baholaydi, shuningdek, muayyan qabul qilish va xulq me’yorlarini belgilaydi. Masalan, “Bo‘rilar bilan yashasang, bo‘richa uvlash” maqoli faqat bir holatni tasvirlamaydi, balki ma’lum bir xulq yo‘lini tavsiya qiladi – ya’ni atrof – muhitga moslashishni. Shu ma’noda klishe tushunchasi til hodisasi emas, balki madaniyat elementi, ya’ni jamiyatning umumiy tajribasi nutqiy shaklda mavjud bo‘lishining usulidir. Shundan kelib chiqadiki, klishe o‘rganish nafaqat tilshunoslik, balki sotsiologiya, psixologiya, madaniyatshunoslik va semiotika uchun ham muhimdir. Chunki ular inson tafakkuri va ijtimoiy ongning shakllangan qoliplarni aks ettiradi. Klishe orqali muayyan xalq yoki davrga xos qadriyatlar, ideallar

⁴ <http://cyberleninka.ru>; help.miratext.ru; iprofi.io; agima.ru; etxt.ru.

va stereotiplar haqida xulosa chiqarish mumkin. Chunki ular madniyatning ichki “kodini” o‘zida mujassamlashtiradi.

Adabiyotlar:

1. Пермяков Г. Л. От поговорки до сказки: Заметки по общей теории клише. — Москва: Наука, 1970. — С. 76-80.

Axborot resurslari:

2. [http: cyberleninka.ru](http://cyberleninka.ru); help.miratext.ru; iprofi.io; agima.ru; etxt.ru